

**IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYANI O'QITISHDA
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

D.Mo'minov, Qo'qon DPI.

E.Mo'minova,

Uchko'prik tumani 16-maktab biologiya fani o'qituvchisi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish rivojlantirilmoqda. Bu iqtisodiy-ijtimoiy geografik bilimlarni puxta egallash garovi bo'lib qoldi. Chunki geografiya ta'limida pedagogik texnologiyalar quyidagi kafolatlarni belgilaydi:

- pedagogik texnologiyalar o'z loyahasiga ega bo'lganligidan uni amalda takrorlash qulay;
- pedagogik texnologiyalar natijalarni turg'un bo'lishini ta'minlaydi;
- pedagogik texnologiyalar aniq maqsad sari yo'naltirilgan bo'lib, oldindan natijani tahmin qilish imkoniga ega;
- erishilgan natijalar darajasini aniq bo'lishi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi pedagogdan bevosita ijodiy faoliyatni hamda ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan soha bilimlarini talab etadi.

Pedagogik texnologiya – bu ta'lim samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladigan hamda pedagogika nazariyasi va amaliyotining barcha sohalari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan o'qitish shakllari, metodlari, vositalari, unga yondashuvlar, tizimlar, kontseptsiyalar, tendentsiyalar, g'oyalarning fanlararo o'zaro birikib yagona majmua tarzida ifodalanishini bildiradi.

Geografiya ta'limi jarayonini bir tizim deb qaraydigan bo'lsak, uni tashkil etuvchilari, ya'ni elementlariga quyidagilar kiradi:

- geografiya kursining o'quv maqsadi;
- geografik tushunchalarni shakllantirishda aniq maqsadlar, kutilayotgan natijalar;

- geografik tushunchalarni shakllantirishda ta'lim beruvchining imkoniyatlari;
- geografik tushunchalarni shakllantirishda ta'lim oluvchining imkoniyatlari;
- geografiya ta'limi mazmuni;
- geografiya ta'limi metodlari;
- geografiya ta'limi shakli;
- geografiya ta'limi vositalari;
- geografiya ta'limida nazorat va baholash.

Geografiya ta'limi jarayonini loyihalashtirishda yuqorida sanab o'tilgan elementlardan birortasi e'tibordan chetda qolsa yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa tizim ishlamaydi, demakki, ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishilmaydi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitishda noan'anaviy ta'lim texnologiyalari orasida muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi. Muammoli o'qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog J.Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi. U o'qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so'z, asarlar, texnik qurilmalar, o'yinlar va mehnat.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya ta'limida muammoli o'qitish samaradorligining uchta bosh sharti mavjud:

1. iqtisodiy-ijtimoiy geografik muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash. Masalan, jahon mamlakatlari rivojlanishidagi nomutanosiblik masalasi;

2. iqtisodiy-ijtimoiy geografik muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash. Masalan, mamlakatlarning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy geografik imkoniyatlarini baholay olish;

3. pedagog va o'quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tiborsiz va rag'batsiz qolmasligi zarur.

Geografiya ta'limida muammoli o'qitishning uchta asosiy shakli mavjud.

1. O'quv materialini muammoli bayon etish – ma'ruzaviy mashg'ulotlarda monolog tarzda, seminar mashg'ulotlarida esa dialog tarzda olib boriladi. O'qituvchi ma'ruza paytida o'quv materialini bayon etayotganida muammoli masalalar tuzadi va ularni o'quvchilar bilan birgalikda yechadi.

2. Qisman izlanuvchan faoliyat geografiyadan tajribalar, amaliy ishlarini bajarishda muammoli seminarlar, evristik suhbatlar davomida namoyon bo'ladi. O'qituvchi muammoli savollar tizimini tuzadi, bu savollarga javoblar olingan bilimlar bazasiga tayanadi, ammo ular oldingi bilimlarda mavjud emas, ya'ni savollar tahsil oluvchilarga intellektual qiyinchiliklar tug'diradi va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy izlanishga undaydi. O'qituvchi imkoni boricha chalg'ituvchi savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, u o'quvchilar javoblariga tayanib, yakuniy xulosa qiladi. Qisman izlanish usuli, 3 va 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (foydalanish, ijod) va bilimlarni 3 va 4-darajasini bilim-ko'nikma, bilim-transformatsiya (qayta shakllanish) ta'minlaydi. An'anaviy tushuntirish va reproduktiv o'qitishga esa, bilim-tanishi va bilim-nusxa shakllanadi.

3. Mustaqil tadqiqot faoliyatida tahsil oluvchilar mustaqil ravishda muammoni ifoda etadilar va uni yechadilar (kurs yoki bitiruv ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida) va o'qituvchi nazorati bilan yakunlanadi, bu esa 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (ijod) va 4-darajali eng samarali, mustahkam bilimni (bilim - qayta shakllanish) egallashni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo`jaeva N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat". Toshkent, 2003.
2. Ziyomuxammadov B., Abdullaeva Sh., Ilg`or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2001.
3. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar. Toshkent, 2008.
4. Mo`minov O. "Geografiya ta'limi metodikasi". Toshkent, "O`qituvchi", 1986.
5. Mo`minov O. " Zamonaviy geografiya darsiga qo`yiladigan talablar", Toshkent, 1990.
6. Mo`minov Doniyor G`ulomovich. "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari". O`quv qo`llanma. "Farg`ona" nashriyoti. Farg`ona. 2020 yil.
- Mominov D.G'. STUDYING OUR CULTURAL HERITAGE IN GEOGRAPHY LESSONS. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Volume: 9| Issue: 5| May 2023|| Journal DOI: 10.36713/epra 2013 || SJIF Impact Factor 2023: 8.224 || ISI Value: 1.188
7. Muminov Daniyori Gulomovich FORMATION OF CARTOGRAPHIC COMPETENCE IN GEOGRAPHY LESSONS. EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues. ISSN:2321-6247 DOI: 10.36713/epra/ 0713.
8. Mominov Daniyori Gulomovich. USE OF TOPONOMIC DATA IN GEOGRAPHY LESSONS. European. Chemical. Bulletin. 2023,12(Special Issue 1, Part-B) ISSN 2063-5346. DOI:10.31838/ecb/2023.12.s1-B.186. 10.04.2023.
9. Rasulova L., Zokirov Sh., "Yangi pedagogik texnologiyalar", Farqona, 2000.